

### **3-laboratoriya mashg'uloti: Monoduragay irsiylanishga oid masalalar yechish.**

**Labarotoriya mashg'ulotining maqsadi:** O'simliklar va hayvonot olami bo'yicha monoduragay irsiylanishga doir masalalar yechish.

Chatishtirishda ishtirok etgan ota-onal organizmlar bitta muqobil belgisi bilan o'zaro farq qilsa, ular **monoduragaylar** deyiladi. Birinchi avlodda namoyon bo'lган belgi **dominant**, yashiringan belgi **retsessiv belgi** deyiladi. Birinchi avlod duragaylarning o'rganilayotgan belgisi bo'yicha o'xshashligi Mendelning **birinchi qonuni** deyiladi. Agar birinchi avlodda duragaylar o'zaro chatishtirilsa, ikkinchi avlodda 75% dominant, 25% retsessiv belgili formalar yuzaga keladi. Ana shunga asoslanib, Mendel o'zining **ikkinci qonunini** kashf etgan. Uning mazmuni  $F_2$  duragaylarning xilma-xil bo'lishi va ular nisbatining 3:1 sxemada yuz berishidir. Mendel nima sababdan ikkinchi avlod duragaylar xilma-xillik beradi, degan muammoni hal etish uchun **gametalar sofligi** farazini ilgari surgan. Bu farazga muvofiq, har qanday organizmda tashqi-ichki belgi omillarni hosil qiluvchi irsiyatning moddiy asoslari — faktorlari mavjud. Mendel ana shu omillarni latin alifbosining harflari bilan ifodalagan. Dominant belgining omilini katta bosmacha xarflar bilan, retsessiv belgining omilini esa kichik yozmacha harflar bilan belgilagan. Turli organizmlarda tashqi-ichki belgi, xossalarning majmuasi hisoblangan **fenotipni** va ana shu belgi-xossalarning rivojini ta'minlovchi irsiyatning moddiy asoslari yig'indisi **genotipni** farq qilish zarur. Organizmlarda bir belgi turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ular **allelomorf belgilar** deb ataladi. Belgilarning rivojlanishini ta'minlovchi genlar esa **allellar** deb nomlanadi.

Misol uchun no'xat doni rangining nasldan-naslga o'tishini olib ko'rsak, monoduragaylarning  $F_1$  va  $F_2$  avlodida tubandagi hodisani ko'rish mumkin:

P	fen	s.	ya.
	genAA	x aa	
$F_1$	fen	s.	s.
	genAa	x Aa	
$F_2$	fen	s.	s. ya.
	gen	AA: Aa:Aa:aa	

Demak,  $F_2$  da fenotip bo'yicha 3:1, genotip bo'yicha 1:2:1 nisbatda ajralish ro'y berdi. Bir xil organizmlarning chatishishidan hosil bo'lган va kelgusida ajralish kuzatilmaydigan organizmlar **gomozigota**, har xil organizmlarning chatishishidan hosil bo'lган va keyingi avlodda ajralish kuzatiladigan organizmlar **geterozigota** deyiladi.

Monoduragay chatishtirishga doir masalalarni yechish uchun: 1) o'quvchilar va talabalar darslikdan: 1) gameta, zigota, dominant, retsessiv, allellar, allelomorf belgilar, genotip, fenotip, gomozigota, geterozigota, takroriy chatishtirish, tahlil qiluvchi chatishtirish tushunchalarini; 2) gametalar sofligi farazining mazmunini; 3) genetikada qo'llaniladigan simvollarni; 4) har bir masalaning sharti va mazmunini yaxshi tushunib olishlari kerak.

### **Belgilarning avloddan-avlodga berilishiga doir masalalar**


#### **4 xil tipda yechiladi**

#### **Birinchi tip - gametalar olish**

Qoramol yungining qora rangi — Q, qizil rangi — q genlari ta'sirida rivojlanadi. Quyidagicha genotipli xromosomalar qanday gameta hosil qiladi?

$$QQ \quad Qq \quad qq .$$

Yechish:



Natija: birinchi va uchinchi qoramol gomozigota bo'lgani uchun bir xil gameta, ikkinchi qoramol geterozigota bo'lgani uchun ikki xil gameta hosil qiladi.

#### **Ikkinchi tip - fenotipga qarab genotipni aniqlash**

**Masalan:** Qoramolning qora yungli erkagi bilan qizil yungli urg'ochisi chatishtirilgan edi, qora rangli buzoq tug'ildi. Buqa, sigir va buzoqning genotipini aniqlang.

**Berilgan:**

$$P_{\text{gen}}^{\text{fen qizil ?}} \times \text{qora ?}$$

$$F_{1\text{gen}}^{\text{fen qora ?}}$$

**Yechish:**

$$F_{1\text{gen}}^{\text{fen qizil aa qora AA}} \\ \downarrow \qquad \qquad \downarrow \\ \text{gameta } a \qquad A$$

$$F_{1\text{gen}}^{\text{fen qora}} \quad Aa$$

Natija: demak, buzoq qora rangli bo'lishi uchun dominant belgili buqa gomozigota genotipga ega bo'lishi kerak. Bunda buzoqning genotipi  $Aa$  bo'ladi.

### **Uchinchi tip—genotipga qarab fenotipni aniqlash**

Qoramolda tubandagi genotipga ega bo'lган организмларни чатиштиришдан qanday yungli buzoqlar tug'iladi?

#### **Berilgan:**

$$P_{\text{gen}}^{\text{fen ? ?}} \quad P_{\text{gen}}^{\text{fen ? ?}} \\ AA \times aa \quad AA \times aa$$

#### **Yechish:**

$$P_{\text{gen}}^{\text{fen qora qizil}} \quad P_{\text{gen}}^{\text{fen qora qizil}} \\ AA \times aa \quad AA \times aa$$



$$F_{1\text{gen}}^{\text{fen qora}} \quad F_{1\text{gen}}^{\text{fen qora qizil}} \\ Aa \quad Aa \quad aa$$

Natija: masalaning birinchi qismidagi sigir va buqalar gomozigota bo'lgani uchun undagi buzoqlar qora rangli, ikkinchi qismidagi shartda qora rangli sigir geterozigota bo'lgani sababli buzoqlarning 50% qora, 50% qizil yungli bo'ladi.

### **To'rtinchi tip—ham genotipni, ham fenotipni aniqlash**

Qizil yungli sigirni qora yungli buqa bilan chatishtirishdan hosil bo'lган  $F_1$  ning fenotipini va genotipini toping. Agar  $F_1$  duray qoramollarning erkak va urg'ochisi o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da qanday natija kutish mumkin.

Yechish. Masalaning mazmunida qora buqaning gomozigota yoki geterozigotaligi qayd qilinmagan, shuni hisobga olib, berilgan masala ikki yo'nalishda echiladi va natijasi aniqlanadi.

#### **Berilgan:**


$$1. \quad P_{\text{gen}}^{\text{fen qizil ?}} \quad 2. \quad P_{\text{gen}}^{\text{fen qizil ?}} \quad P_{\text{gen}}^{\text{fen qora ?}}$$

$$F_{1\text{gen}}^{\text{fen ? ?}} \quad F_{1\text{gen}}^{\text{fen ? ?}}$$

$F_{2\text{gen}}$  ?

$F_{2\text{gen}}$  ?

### Yechish:



Masalaning birinchi qismidagi qora yungli buqa gomozigota bo'lgani uchun  $F_1$  dagi qoramollarning genotipi Aa, fenotipi qora,

$F_2$  dagi qoramollarning genotipi  $1AA:2Aa:1aa$ , fenotipi esa 75% qora yungli, 25% qizil yunglidir. Masalaning ikkinchi qismida qora yungli buqa geterozigota deb olingan taqdirda,  $F_1$  va  $F_2$  dagi qoramollar genotip va fenotip bo'yicha 1 : 1 nisbatda ajraladi.

Binobarin, monoduragay chatishtirishda ota-onalik organizm bir belgisi bilan o'zaro farq qiladi. Chatishtirishda ishtirok etayotgan dominant belgili organizm gomozigota bo'lsa,  $F_1$  avlodda o'rganilayotgan belgi bo'yicha duragaylar bir xil bo'lib, ular o'zaro chatishtirilsa, ikkinchi bo'g'inda 3: 1 nisbat, agar u retsessiv belgili forma bilan qayta chatishtirilsa (bekkross), u holda nisbat 1: 1 ga teng bo'ladi.

### Mustaqil yechish uchun masalalar

- Tovuqlarda gulsimon toj dominant (A), oddiy toj retsessiv (a). Tajribada gulsimon tojli tovuqlar oddiy tojli xo'rozlar bilan chatishtirildi.  $F_1$  duragylarning fenotipi va genotipi qanday bo'ladi?
  - agar  $F_1$  o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da qanday natija kutish mumkin?
  - $F_1$  oddiy tojli xo'rozlar bilan qayta chatishtirilsachi?

2. Quyonlarda yungning normal uzunligi dominant (*B*), qisqaligi retsessiv belgi (*b*) hisoblanadi. Tubandagi genotipga ega organizmlar chatishirilganda qanday fenotipli organizmlar olinadi?

$$Bb \times Bb ; \quad BB \times bb; \quad Bb \times BB.$$

3. Pomidor mevasining qizil rangi (*A*) sariq rangi (*a*) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada urug'chi va changchining o'simliklar qizil rangga ega edi, lekin ular chatishirilganda  $\frac{3}{4}$  qizil,  $\frac{1}{4}$  sariq pomidor hosil bo'ladi. Ota-onaning va  $F_1$  duragaylarning genogipini aniqlang.

4. Odamda qo'yko'zlik dominant, ko'kko'zlik retsessiv belgi. Nikohlangan yigit va qizning biri qo'yko'z, ikkinchisi ko'kko'z bo'lsa, ular farzandlarining ko'zi qanday rangda bo'ladi?

5. Gomozigota g'o'zaning hosil shoxi cheklanmagan (*C*) va cheklangan (*c*) formalari o'zaro chatishirildi.  $F_1, F_2$  avlodning genotipini va fenotipini aniqlang.

6. Mioplegiya kasalligi (hujayralarda kaliy elementi kamayib ketishi natijasida ro'y beradigan muskul paralichi) dominant belgi sifatida nasldan-naslga o'tadi. Ota shu kasallik bo'yicha gegerozigota, ona sog'lom bo'lgan oilada mioplegiya kasalligi bilan tug'ilish ehtimoli qanday?

7. Odamda kar-soqovlikning ma'lum bir formasini keltirib chiqaruvchi gen normal eshitishni ta'minlovchi genga nisbatan retsessivdir:

a) geterozigota ota-onadan qanday avlod kutish mumkin?

b) kar-soqov erkak va ayol nikohidan kar-soqov bola tug'ildi. Ota-onaning genotipini aniqlang.

8. Drozofila meva pashshasida normal qanot dominant, egilgan qanoat retsessiv gen ta'sirida rivojlanadi. Naslda 3:1 yoki 1:1 nisbat olish uchun qanday genotipli pashshalarni o'zaro chatishirish kerak?

9. Ipak qurti lichinkalarining yo'l-yo'llik (*A*) belgisi bir xil rang (*a*)li lichinka belgisi ustidan dominantlik qiladi. Yo'l-yo'l geterozigotali qurtdan chiqqan kapalak bir xil rangli qurtdan chiqqan erkak kapalak bilan chatishiriladi.  $F_1$  bo'g'inning fenotipi va genotipini toping.

10. Ipak qurti urug'inining qoramtilrangi (*A*) oq rangi (*a*) ustidan dominantlik qiladi. Geterozigotali urg'ochi kapalak shunday erkak kapalak bilan chatishishidan qanday nasl olinadi?

11. Drozofila tanasining kulrangi dominant qora rangi retsessiv. Shunday ota-onsa drozofilalarning chatishishidan hosil bo'lgan  $F_1$  dagi erkak, urg'ochilar drozofila chatishirilsa  $F_2$  kulranglilari necha protsent tashkil etadi.

12. Itog'iz o'simligining guli qizil va guli oq formalari chatishirilgan edi.  $F_1$  barcha duragaylar qizil gulli bo'lib,  $F_2$  da 160 o'simlikning 119 qizil gulli 41 oq gulli bo'ldi. Urug'chi va changchi o'simliklarning genotipini toping.  $F_2$  xilma-xillikni izoxlang. Taxliliy chatishirishdan qanday natija olinadi.

13. Qo'ylarda yungning qora rangli retsessiv, oq rangi esa dominant. Oq qo'ylar genotipida qora qo'ylarni geni bor yoki yo'qligini bilish uchun ular qanday rangli qo'ylar bilan chatishtirilishi kerak.
14. Qoramollarda shoxni bo'lmasligi dominant, shoxni bo'lishi retsessiv sanaladi. Shoxsiz buqa uch xil sigir bilan chatishtirildi
- 1) Shoxsiz buqa shoxli sigirdan shoxli buzoq
  - 2) Shoxsiz buqa shoxli sigirdan shoxsiz buzoq
  - 3) Shoxli buqa shoxsiz sigirdan shoxli buzoq olindi. Barcha buqa, sigirlarni va buzoqlarni genotipini aniqlang
15. Qizil yungli sigir qora yungli buqa bilan chatishtirilganda  $F_1$  da barcha buzoqlar qora yungli,  $F_2$  da esa 66 qora, 24 qizil yungli buzoqlar olindi. Sigir va buqalar genotipi qanday? Sizning farazingiz to'g'ri ekanligini aniqlash uchun qanday chatishtirish o'tkazilishi lozim?
16. Qoramolning gerefond zotida ba'zan pakana qoramollar uchraydi. Pakana forma normal gerefond bilan chatishtirilsa  $F_1$  normal qoramol tug'iladi. Agar normal  $F_1$  pakana forma bilan chatishtirilsa normal va pakana gerefondlar olinadi va ularning nisbati 1:1 bo'ladi. Pakanalik qanday tipda irsiyланади?
17. To'rtta karp balig'inining qorin tomonida suzgich pardasi bor va suzgich pardasi yo'q xillari chatishtirishdan tubandagicha natija olindi.
- №1 96ta qorin tomonida suzgich pardasi bor, 101 ta qorin tomonida suzgich pardasi yo'q
- №2 115ta qorin tomonida suzgich pardasi bor
- №3 20ta qorin tomonida suzgich pardasi bor
- №4 45ta qorin tomonida suzgich pardasi bor, 39ta qorin tomonida suzgich pardasi yo'q.
- Belgi qanday irsiylandi. Chatishishda qatnashgan barcha baliqlarning genotipini aniqlang.
18. Akvariumdagi oltin baliqlardan teleskop ko'zli belgi retsessiv gen allellari yordamida rivojlanadi. Geterozigota  $F_1$  normal ko'zli urg'ochi baliqni teleskop ko'zli erkak baliq bilan chatishtirishda  $F_b$  59 chavog'lar olindi. Chavog'larning nechtasi teleskop ko'zli bo'ladi? Agar  $F_1$  normal ko'zli erkak baliq bilan chatishtirilsa nima bo'ladi?
19. Drozofila meva pashshasida tananing kulrangi dominant, qora rangi retsessiv sanaladi.
- Tubandagi chatishtirishda qatnashgan erkak urg'ochi drozofilalarning genotipi qanday?

$\text{♀}$  va  $\text{♂}$   $F_1$   
qora x qora \_\_\_\_\_ 133 qora tanali

qora x kulrang \_\_\_\_ 119 kulrang 123 qora tanali

kulrang x kulrang \_\_\_\_ 137 kulrang tanali

kulrang x qora \_\_\_\_ 125 kulrang tanali

kulrang x kulrang \_\_\_\_ 170 kulrang 60 qora tanali

20. Binafsharang javdari, yashil javdari chatishishida  $F_2$  458 binafsharang javdari, 150 yashil maysalar olindi. Urug'chi va changchi shuningdek  $F_1$  va  $F_2$  genotipini toping.